

IQTISODIY O'SISH VA INNOVATSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISHNING KALITI SIFATIDA

Lola Xalikova Nazarovna

Iqtisodiy fanlari doktori, professor

Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

ahrorproduction@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy o'sish va innovatsiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilinadi. Innovatsion texnologiyalar va ilg'or yondashuvlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdagi o'rni va turli tarmoqlarga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Tadqiqotda iqtisodiy o'sish nazariyalari, innovatsion siyosat, raqobatbardoshlik strategiyalari va mehnat bozoridagi o'zgarishlar tahlil qilinib, ilmiy manbalar sharhi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar, texnologik rivojlanish, raqobatbardoshlik, investitsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish, innovatsion siyosat, mehnat bozori, kapital.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между экономическим ростом и инновациями. Освещается влияние инновационных технологий и передовых подходов на экономическую эффективность, их роль в оптимизации производственных процессов и влияние на различные отрасли. В исследовании рассматриваются теории экономического роста, инновационная политика, стратегии конкурентоспособности и изменения на рынке труда, а также приводится обзор научных источников.

Ключевые слова: Экономический рост, инновации, технологическое развитие, конкурентоспособность, инвестиции, экономическая эффективность, производство, инновационная политика, рынок труда, капитал.

Abstract: This article analyzes the interrelationship between economic growth and innovations. It highlights the impact of innovative technologies and advanced approaches on economic efficiency, their role in optimizing production processes, and their influence on various industries. The study examines economic growth theories, innovation policy, competitiveness strategies, and labor market changes, along with a review of scientific sources.

Key words: Economic growth, innovations, technological development, competitiveness, investments, economic efficiency, production, innovation policy, labor market, capital.

Kirish

Iqtisodiy o'sish va innovatsiyalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, barqaror rivojlanishning ajralmas kaliti hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti bevosita innovatsion texnologiyalar va ilg'or yondashuvlarga bog'liq. Innovatsiyalar yangi mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish jarayonlarini shakllantirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ular nafaqat ishlab chiqarish va sanoat sohalarini rivojlantiradi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va transport kabi muhim tarmoqlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi global raqobat sharoitida iqtisodiy barqarorlik va o'sishga erishish innovatsion rivojlanishsiz imkonsiz. Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, startaplar va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ilmiy izlanishlarga sarmoya kiritish mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy mustahkamligini ta'minlaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion strategiyalarni amalga oshirish nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki aholi turmush darajasining oshishiga ham xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiyot yaratish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalarni jalb qilish, ilm-fan va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, ijodiy yondashuvni rag'batlantirish natijasida mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikka

erisha oladi. Shu bois, iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash strategik muhim vazifa hisoblanadi.

Adabiyot sharhi

Iqtisodiy o'sish va innovatsiyalar mavzusida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini turli jihatdan tahlil qiladi. Ushbu bo'limda iqtisodiy o'sish va innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni yorituvchi muhim ilmiy manbalar tahlil qilinadi.

“Innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish nazariyalari. Iqtisodiy o'sish nazariyalarida innovatsiyalar muhim omil sifatida ko'riladi. Solou va Romer tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy o'sish modellari innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini asoslab beradi. Romerning endogen o'sish modeli ilmiy fan va tadqiqotlarga kiritiladigan sarmoyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtirishini ko'rsatadi. Shuningdek, Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'riflab, tadbirkorlik va yangi texnologiyalarning iqtisodiyotdagi rolini ta'kidlagan”¹.

Innovatsiyalar va barqaror rivojlanish. Porter tomonidan ishlab chiqilgan “Raqobatbardoshlik nazariyasi” innovatsiyalar orqali mamlakatlarning global bozordagi mavqeini mustahkamlash mumkinligini ko'rsatadi. Yuqori texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan iqtisodiyot barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi. Bunda Davos Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan ishlab chiqilgan “Global Innovatsion Indeksi” innovatsion rivojlanish darajasini baholash mezonini sifatida e'tirof etiladi.²

“Innovatsion siyosat va iqtisodiy taraqqiyot. OECD (2010) tomonidan e'lon qilingan “Innovatsion siyosat va iqtisodiy o'sish” hisobotida davlatlarning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Hisobotga ko'ra, ilmiy tadqiqotlarga investitsiya kiritish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va intellektual mulk himoyasini kuchaytirish iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Shuningdek, Evropa

¹ Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.

² Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 1990.

Ittifoqining “Horizon 2020” dasturi innovatsion iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan yetakchi tashabbuslardan biri sifatida qaraladi”³.

Innovatsiyalar va mehnat bozori. Brynjolfsson va McAfee (2014) o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlarining mehnat bozori va iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, innovatsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, biroq ba’zi kasblarning yo‘qolishiga ham olib kelishi mumkin. Shu bois, davlat siyosati yangi texnologiyalarga moslashish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilishi lozim.

Innovatsiyalarning iqtisodiyotdagi real ta’siri. Piketty (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy o‘sinh va innovatsiyalar natijasida daromad tengsizligi masalasini ham ko‘rib chiqadi. U innovatsion taraqqiyotning ayrim guruhlar uchun yuqori daromad keltirishi, biroq ijtimoiy tafovutlarni oshirish ehtimolini ham ta’kidlaydi. Shuning uchun, innovatsiyalarni rag‘batlantirish jarayonida inklyuziv iqtisodiy siyosat yuritish muhim sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot davomida monografik kuzatish, statistik abstraktsiya, mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullarini o‘z ichiga olgan ilmiy izlanishlarga tizimli yondashuv keng qo‘llanildi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O‘zbekiston hududlarida asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sinh sur‘atlarini baholashdan oldin, biz investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlab olishimiz lozim. Quyida esa izlanish natijasida to‘plangan statistik ma’lumotlar jadval shaklida keltirilgan:

1-Jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sinh sur‘ati (yillik)

Klassifikator	2 020	2 021	2 022	2 023	O‘zgaris h(2020 va
---------------	----------	----------	----------	----------	-----------------------

³ OECD. Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. 4th edition, 2018.

					2023-yillar o'rtasida)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 9,9	1 05,1	1 14,9	1 16,6	+46.7%
Andijon viloyati	1 10,6	1 06	1 16,5	1 21,2	+10.6%
Buxoro viloyati	1 04,7	1 47,4	9 4,2	1 32,2	+27.5%
Jizzax viloyati	1 47,4	7 2,4	1 04,6	1 34,1	-13.3%
Qashqadaryo viloyati	7 6,5	7 7,8	8 0	1 17,7	+41.2%
Navoiy viloyati	7 7,1	8 6	1 09,4	1 36,3	+59.2%
Namangan viloyati	8 8	1 00,5	1 04,2	1 21,3	+33.3%
Samarqand viloyati	1 28,8	9 8,7	1 11,6	1 27,8	-1.0%
Surxondaryo viloyati	7 7,4	1 09,7	8 7,5	1 48,3	+70.9%
Sirdaryo viloyati	1 11,2	1 07,7	1 35,1	1 17,7	+6.5%
Toshkent viloyati	9 2,2	1 20,3	1 10,7	1 21,1	+29.3%
Farg'ona viloyati	1 13,5	1 05,7	1 12,4	1 20,1	+6.6%
Xorazm viloyati	9 2,7	1 39,3	9 4,2	1 21	+28.3%

Toshkent shahri	1 08,6	1 05	8 7,2	1 15,8	+7.2%
------------------------	-----------	---------	----------	-----------	-------

Manba: “Ushbu ma’umotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy sayti asosida tuzilgan. <https://www.stat.uz>”⁴

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarning o‘rni juda muhim. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan mablag‘lar infratuzilma, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining taraqqiy etishiga bevosita ta’sir qiladi. Investitsiyalar oqimi iqtisodiy faollik, biznes muhiti, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq. Jadvalda 2020—2023-yillarda O‘zbekiston hududlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘zgarish sur‘atlari aks ettirilgan. Ushbu ma’lumotlar hududiy investitsiyaviy faollikni baholash, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tushunish va kelajakda samarali qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2020—2023-yillarda hududlar bo‘ylab investitsiyalar hajmida sezilarli tafovutlar kuzatilgan. Ayrim hududlarda sarmoya hajmi keskin oshgan bo‘lsa, ba’zi joylarda u barqarorlikni saqlagan yoki kamaygan.

Surxondaryo viloyati investitsiyalar hajmining eng katta o‘shishiga erishdi +70,9%. Bunga hududda yirik loyihalarining amalga oshirilishi, xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi va infratuzilmaviy rivojlanish omil bo‘lishi mumkin. Navoiy viloyatida ham sezilarli o‘shish +59,2% qayd etilgan bo‘lib, bu hudud tog‘-kon sanoati va yirik sanoat korxonalarining faoliyati bilan izohlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida +46,7% investitsiyalar hajmining ortishi hududning infratuzilma va qishloq xo‘jaligi loyihalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar hisobiga yuz bergan. Qashqadaryo viloyati +41,2% ham investitsiyaviy o‘shish bo‘yicha yetakchi hududlardan biri bo‘ldi.

Buxoro +27,5%, Xorazm +28,3%, Toshkent viloyati +29,3%, va Namangan +33,3% investitsiyalarning mo‘tadil o‘shishini namoyish etdi. Andijon +10,6% va Farg‘ona +6,6% hududlarida esa investitsiyalar kamroq o‘sgan bo‘lsa-da, iqtisodiy faollik saqlanib qolgan. Jizzax viloyatida -13,3% investitsiyalar kamaygan bo‘lib, bu

⁴ <https://www.stat.uz>

hududda iqtisodiy faollikning pasaygani yoki sarmoyaviy oqimning susaygani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Samarqand viloyati -1,0% sarmoya hajmining o'zgarmaganligini ko'rsatdi. Toshkent shahri +7,2% investitsiyalarning o'sish sur'ati bo'yicha ortda qoldi.

Investitsiyalarning hududiy o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat degan fikriga kelamz:

- Davlat dasturlari va loyihalar, ya'ni yirik sanoat va infratuzilma loyihalari ko'proq mablag' jalb qilishga yordam beradi.
- Xorijiy investitsiyalar oqimi, qaysiki chet el sarmoyadorlarining qiziqishi yuqori bo'lgan hududlarda investitsiya ko'paygan.
- Tabiiy zaxiralarga ega hududlar sarmoyadorlar uchun jozibador bo'lib qolmoqda.
- Yirik transport yo'llari yaqinida joylashgan hududlar investitsiyalarning ko'proq jalb qilinishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar

“O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sishni namoyon etmoqda. Bu jarayonda turli omillar sarmoya jalb qilish, ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi, eksport salohiyatining ortishi va infratuzilmaviy loyihalarining amalga oshirilishi muhim rol o'ynamoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning samaradorligi hududlar bo'yicha farqlanadi va bu esa investitsion siyosatni hududiy omillar asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda davlat tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlar natijasida ayrim hududlarda sanoat rivojlanib, yangi korxonalar tashkil etildi, tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda investitsiya faolligi sustligi iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini sekinlashtirayotgan omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiy o'sishni har tomonlama jadallashtirish uchun tizimli yondashuv talab qilinadi”⁵.

⁵ Nazarov U. O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion modelga o'tishining ayrim yo'nalishlari, Innovatsion iqtisodiyot jurnali, 2023..

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy o'sishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni kamaytirish uchun mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini yanada kuchaytirish lozim. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va ichki bozorni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotini yanada barqaror rivojlantirish va hududiy farqlarni kamaytirish uchun quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin:

- “Xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay biznes muhiti yaratish va ularga taqdim etilayotgan imtiyozlarni kengaytirish. Investitsiya jalb qilish jarayonlarini soddalashtirish va investorlar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash. Innovatsion sanoat loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalarni oshirish va yuqori texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratish.

- Past iqtisodiy faollikka ega hududlarda sanoatni rivojlantirish va tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish. Infratuzilmani yaxshilash va transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish orqali investitsiyalar oqimini ta'minlash. Hududiy iqtisodiy o'sishni tezlashtirish uchun mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish.

- Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish va sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish. Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish”⁶.

- Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsuldorlikni oshirish. Mahalliy mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va eksport salohiyatini kuchaytirish.

⁶ World Bank (2023). Global Economic Prospects 2023. Washington, DC: World Bank Group.

Import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va ichki bozorni mustahkamlash.

– Mehnat resurslarining sifatini oshirish maqsadida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish. Hududiy bandlikni oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirish. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash orqali O'zbekiston iqtisodiyoti uchun innovatsion rivojlanish asoslarini mustahkamlash.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun sarmoyalar jalb qilish, hududiy farqlarni kamaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djalilova G. Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli // Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2023. – №3. – B. 25–38.
2. Xodjayev A. Innovatsion va raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri // ResearchGate. – 2022.
3. Sul'tonov M., Raximov A. O'zbekistonning ilmiy-texnologik va innovatsion salohiyatini oshirish va innovatsion ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish // CyberLeninka, 2021.
4. Karimova Z. Iqtisodiy o'sish sharoitida intellektual salohiyatni rivojlantirish istiqbollari // ResearchGate, 2022.
5. Nazarov U. O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion modelga o'tishining ayrim yo'nalishlari // Innovatsion iqtisodiyot, 2023. – №2.
6. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.
7. Akmal I. Sotvoldiyev "Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi haqida" <https://newjournal.org/new/article/view/8408>

8. Freeman C., Soete L. The Economics of Industrial Innovation. Routledge, 1997.
9. Lundvall B.A. National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning. Pinter, 1992.
10. Nelson R.R. National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford University Press, 1993.
11. Smith K. Innovation and Economic Growth // OECD Science, Technology and Industry Working Papers, 2006.
12. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 1990.
13. OECD. Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. 4th edition, 2018.
14. World Bank (2023). Global Economic Prospects 2023. Washington, DC: World Bank Group.